



Comparative analysis of functional-semantic characteristics of morphological categories of nouns in Uzbek and English languages

Makhliyo FURKATOVA¹

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form

10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

morphological signs,
affixation,
lexical-grammatical index,
analytical form,
grammatical categories,
syntactic signs.

ABSTRACT

This article functionally and semantically compares nouns in both languages, analyzes their similarities and differences, resulting in comparative and basic information for learning these languages. It is known that the types of nouns in the English language are functionally similar to the types of nouns in the Uzbek language, but differ in name and division into types. For example, in the English language, nouns are divided according to the principle of singularity and generality, and in the Uzbek language, nouns that perform this function are called common nouns and common nouns. The only big difference in dividing nouns into types is the presence of a separate category such as animate and inanimate in English and the absence of this category in Uzbek. This difference also depends on the types of grammatical categories in them. The existence of such differences creates problems for Uzbek students studying English, not being able to find an accurate translation, not being able to express the original meaning of words and phrases in another (English) language. The article highlights many other similar and different aspects using specific examples, and it is expected that the above problems will be solved, at least partially.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp224-231>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctoral student, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Uzbekistan.
E-mail: furkatovamaxliyo@gmail.com

O'zbek va ingliz tillaridagi otning morfologik kategoriyalari funksional – semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlili

Kalit so'zlar:

morfologik belgilar,
affiksatsiya,
leksik-grammatik
ko'rsatkich,
analitik forma,
grammatik kategoriyalar,
sintaktik belgilar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada har ikki tildagi otlar funksional – semantik jihatdan taqqoslanib o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilindi va natijada o'sha tillarni o'rganishda qiyosiy-bazaviy ma'lumotlar keltirilib o'tildi. Ma'lumki, ingliz tilidagi ot turlari o'zbek tilidagi ot turlariga funksional jihatdan o'xshab ketadi, ammo nomlanish va turlarga bo'linish jihatdan farq qiladi. Misol uchun ingliz tilida otlar yakka va umumiylik tamoyili asosida bo'linsa, o'zbek tilida shu vazifani bajaruvchi otlar turdosh va atoqli otlar deb nomlanadi. Otlarni turlarga bo'linishdagi yagona katta farq jonli va jonsizlik kabi alohida kategoriyaning ingliz tilida mavjudligi, o'zbek tilida esa bu kategoriyaning yo'qligi hisoblanadi. Shu kabi farq ulardagi grammatik kategoriya turlariga ham bog'liq. Shunday farqlarning mavjudligi ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek talabalarida ayni tarjimasini chiqara olmaslik, so'zlarning, so'z birikmalarining asl ma'nosini boshqa (ingliz tili) tilda ifodalay olmaslik muammolarni keltirib chiqaradi. Maqolada ham shu kabi boshqa ko'plab farqli va o'xshash tomonlar aniq misollar bilan yoritilib, yuqoridagi muammolar qisman bo'lsa-da hal qilinishi kutilmoqda.

Сравнительный анализ функционально-семантических характеристик морфологических категорий существительных в узбекском и английском языках

Ключевые слова:

морфологические
признаки,
аффиксация,
лексико-грамматический
указатель,
аналитическая форма,
грамматические
категории,
синтаксические знаки.

АННОТАЦИЯ

В данной статье функционально и семантически сравниваются существительные в обоих языках, анализируются их сходства и различия, в результате чего представлена сравнительная и основная информация при изучении этих языков. Известно, что типы существительных в английском языке функционально сходны с типами существительных в узбекском языке, но различаются по наименованию и делению на типы. Например, в английском языке существительные делятся по принципу единственности и общности, а в узбекском языке существительные, выполняющие эту функцию, называются нарицательными. Единственная большая разница в делении существительных на типы – это наличие отдельной категории, такой как одушевленные и неодушевленные, в английском языке и отсутствие этой категории в узбекском языке. Такое различие зависит и от

типов грамматических категорий в них. Существование таких различий создает проблемы для узбекских студентов, изучающих английский язык, не имея возможности найти точный перевод, не имея возможности выразить исходный смысл слов и фраз на другом (английском) языке.

KIRISH

Har ikki tildagi otlarni funksional-semantik jihatdan tadqiq qilishdan oldin morfologiya tushunchasi haqida kengroq tahlillar olib borish maqsadga muvofiq bo'lardi. Morfologiya (morphology) yunoncha *morphe* – shakl, forma degan ma'noni, *logos* – so'z degan ma'noni anglatib, so'zlarning morfologik strukturasini, grammatik formalar yasashda morfemalarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, joylashish qonunlarini, so'z turkumlari va ularning ma'nosini o'rganadi [2, b. 12].

O'zbek tilida morfologik kategoriyalarni ikkiga bo'lishimiz mumkin. Ular leksik va funksional morfologik kategoriyalardir. Ma'lum bir turkum doirasidagi so'zlarning ayrim guruhlari leksik morfologik kategoriyalarni hosil qiladi. Ularga *nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, harakat tarzi, o'zgalovchi, son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja* kategoriyalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Funksional morfologik kategoriyaga esa ma'lum bir vazifada keluvchi va o'sha vazifasi barcha so'zlarga xos bo'lgan *kelishik, egalik va kesimlik* kategoriyasini kiritsak bo'ladi. Bunda kelishik kategoriyasi nafaqat ot, balki ot so'z turkumidan tashqari boshqa turkumga oid barcha so'zlar uchun xos hisoblanadi. Faqat bu jarayonlar otlashgan so'zlardagina kuzatilishini unutmashimiz kerak. [2, b. 12].

Morfologik kategoriyalarda sintaktik aloqaga ko'ra *birin ketinlik* uslubiga tayanadi. Bunda so'zlarning bir biriga sintaktik jihatdan bog'lanishida *oldingisi bilan* yoki *keyingisi bilan* kabi tahlil qilinadi. Misol uchun, *daftarning* so'zida –ning suffiksi o'zidan keyin egalik qo'shimchasini olgan ot kelishigini talab qiladi yoki *varag'i* so'zidagi –i qo'shimchasi o'zidan oldin keladigan so'zning –ning affiksi bilan birga kelishini so'raydi.

Shuni aytib o'tish joizki, morfologiya va uning kategoriyalari (egalik, shaxs-son, kelishik, zamon, ko'plik, mayl) ustida ingliz va o'zbek tillarida ko'plab ishlar olib borilgan. Ular orasidan nafaqat ma'lum bir til sohasi bo'yicha yozilgan ilmiy ishlarni ko'rishimiz mumkin, balki aynan o'zbek va ingliz tillarini taqqoslab, qiyoslab ish olib borilganlariga ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular safiga Abdurahmonov G. va Shukurovlarning "O'zbek tilining tarixiy grammatika. Morfologiya va sintaksis", Tenishov va Blagovalarning "Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков", X. Ne'matovning "Историческая морфология узбекского языка XIVXV веков", M. Askarova va X. Abdurahmonovlarning "O'zbek tili grammatikasining praktikumi", S.M. Mutallibovning "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. (XI asr yozma yodgorliklari asosida)", X. Komilovning "O'zbek tilida son va olmosh (Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar)", E.J. Moroxovskayaning "Theoretical grammar through practice" larni misol qilishimiz mumkin. Bu sohada bir qancha ishlar olib borilganiga qaramay, yurtimizda qiyosiy tipologiyada yana ko'plab ishlar olib borilishi, har bitta mavzuda chuqurroq izlanishlar olib borilishi lozim. Quyidagi maqolada ham mana shu asarlar yordamida otning morfologik kategoriyalari qisman bo'lsa-da yoritilib chiqiladi. Sababi o'zbek tilidagi ba'zi otga taalluqli bo'lgan ma'nolar qo'shimchalar yordamida aks

etsa, ingliz tilida shu ma'noga ayni to'g'ri keladigan qo'shimcha yo'qligidan boshqa so'zlar bilan ifodalanadi. Maqolamizda shunday ikkilantiruvchi ma'nolarning ingliz tilidagi muqobil shakllari o'rganilib taqdim qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ma'lumki, har ikki tilda shaxslarning nomi, narsa-buyum atamasi bo'lgan so'zlar turkumi ot deyiladi. Ammo quyida har ikki tildagi ot so'z turkumi haqida kengroq to'xtalib o'tamiz va ular o'rtasidagi ko'plab farqli va o'xshash jihatlarni ko'ramiz. Bunda nazariy tadqiqot metodining umumlashtirish usuli, empirik-nazariy tadqiqot metodidan tahlil usuli va empirik tadqiqot metodining kuzatish – qiyoslash usullaridan foydalanamiz. Buni otning asosiy belgilari, ya'ni ot so'z turkumini boshqa so'z turkumlaridan yaqqol ajratib ko'rsatadigan tashqi struktur, leksik-grammatik kabi belgilaridan boshlaymiz. Bunga ko'ra ingliz tilida otlardagi grammatik belgilarni asosiy uchta – morfologik belgilar, sintaktik belgilar va leksik-grammatik belgilarga ajratamiz. Bu jarayonda biz tahlil va kuzatish – qiyoslash usullariga murojaat qilamiz.

1. Ingliz tilida morfologik belgilar o'z nomidan ma'lum otning grammatik kategoriya shakllarini yasovchi morfema va morfema turlaridan tashkil topadi. Son kategoriyasida ko'plik yasovchi –s, –en (books, phones, pencils, oxen) va boshqa qo'shimchalar (-es, a, -ies), kelishik kategoriyasidan egalik kelishigini yasovchi apostrofli –'s ni (Malika's, father's, cat's) misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Xuddi shu kabi qo'shimchalar o'zbek tilida ham mavjud. Faqat bunda ko'plik qo'shimchasi –lar va kelishik kategoriyasidagi qaratqich kelishigi shakli -ning faqat ot so'z turkumiga emas, narsa ma'nosini bildiruvchi boshqa so'z turkumlarga ham, asosan otlashganda va ot vazifasida kelganda ishlatiladi: *Birinchilardan, qizillarga, uxlamaganlar uchun, ularning, ikkinchining*. Bu o'rinda yana yuqoridagi shakllarning oppozitsiyaga kirishayotganini ta'kidlab o'tishimiz joiz. Morfologiyada morfologik qarama-qarshilik (oppozitsiya) tushunchasi bor va uning mavjudligi grammatik kategoriyalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, otlardagi birlik va ko'plik shakllarini olaylik. Bunda birlik formasi bilan ko'plik formasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, birining mavjud bo'lishi uchun ikkinchisining bo'lishi shart etib belgilangan. Buni otlardagi kelishik kategoriyasining bosh kelishigi bilan boshqa kelishiklar o'rtasidagi munosabatda ham ko'rishimiz mumkin.

2. Keyingi belgi otning sintaktik belgilari bo'lib, otlar boshqa so'z turkumidagi so'zlar bilan munosabatga kirishganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ingliz tilida bu belgilarga artikl (a, an, the book), sifat (a big, small pen), sifatdosh (a bored boy), son (2, 3, 5 people), ko'rsatish (this, these, those, that boy), gumon (some, any, no pen), egalik (my, his, her, their, our, your book) va boshqa turdagi olmoshlar kiradi. O'zbek tilida artikldan tashqari yuqoridagilarning barchasi mavjud. Misol uchun, katta bayram (sifat), o'qigan bola (sifatdosh), 4ta qizlar (son), mana bu bola (ko'rsatish olmoshi), mening kitobim (kishilik olmoshiga qaratqich kelishigi qo'shilganda), bir qancha kitoblar (faqat buyerda ingliz tilidagidek gumon olmoshi emas ravish so'z turkumi sifatida kelyapti). Shuning uchun *a book* degan so'zimiz o'zbek tilida artikl bo'lmaganidan son so'z turkumidagi *bitta* so'zi bilan yoki gumon olmoshidagi *qandaydir bir* so'zi bilan chiqariladi.

3. Asosan ot yasovchi qo'shimchalar otlarning leksik-grammatik belgilariga kiradi. Unda ot yasovchi suffikslarni ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida:

Writer – er	assistant – ant	robbery – ry
Alteration – tion	denial – al	friendship – ship
Development – ment	preference – ence	darkness – ness

Shuni aytib o'tish kerakki, har bir ot yasovchi qo'shimchalar semantik – ma'no jihatdan bir-biridan farqlanadi. Masalan: -er kasb yasovchi ot bo'lsa, -ment o'zi qo'shilib kelgan so'zning harakatini ifodalaydi [6, b. 12-13].

O'zbek tilida ham otlar affiksatsiya yo'li bilan yasaladi. Ammo ingliz tilidagi suffikslardan bir farqi ot yasovchi qolipning aksariyati ko'p ma'noli bo'lishidadir [4, b. 225].

- Sportchi – chi – kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'nosida;
- Xabarchi – chi – asosda anglashilgan ish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti ma'nosida;

- Respublikachi – chi – biror maslak oqim tarafdori ma'nosida va boshqalar.

Boshqa ko'plab qo'shimchalarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Tajovuzkor – kor	zambilkash – kash	kitobxon – xon
Qayg'udosh – dosh	otalik – lik	olmazor – zor
O'tloq – loq	namgarchilik – chilik	savdogar – gar

Hozirgi ingliz tilida otlarni semantik jihatdan ajratganimizda ularni jonli, jonsizlik, yakkalik va umumiylik kabi turlarga bo'lishimiz mumkin [3, b. 15]. O'zbek tilida esa otlar ma'no jihatidan atoqli otlar va turdosh otlarga bo'linadi, ammo jonli jonsizlik tamoyili bu tilda mavjud emas [1, b. 70]. Bunda quyidagi semantik xususiyatlarni inobatga olgan holda otlar klassifikatsiyalanadi:

a). Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra;

b). Kim yoki nima so'zlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra;

d). Sanalish yoki sanalmasligiga ko'ra.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek tilidagi turdosh va atoqli otlarni ingliz tilidagi yakkalik va umumiylik tamoyiliga moslashimiz mumkin. Bunda ingliz tilida yakkalik va umumiylik jihatidan turdosh otlar (common nouns) va atoqli otlar (proper nouns)ga bo'linadi. Buranovning "Ingliz tili grammatikasi" o'quv qo'llanmasida turdosh va atoqli otlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Inson, hayvonot, umuman tirik mavjudot va boshqa aniq yoki mavhum tushunchalarning umumlashtiruvchi nomlari turdosh ot sanaladi. *Ularga book, pen, tree, grass, class, phone* kabi so'zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Atoqli otlar esa yakka predmet, ma'lum shaxs, maxsus joy yoki hodisa nomlarini anglatadi: *Makhliyo, Grand Sultan, Russia, United Nations*" [3, b. 12]. Ularning asosiy leksik-grammatik ko'rsatkichlariga artikllar, ko'plik qo'shimchasi kiradi. Misol uchun, atoqli otlar ko'plik qo'shimchasi bilan kelmaydi, ammo turdosh otlar bilan birga qo'llaniladi va ko'plik ma'nosini beradi. Atoqli otga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda ham u turdosh otlarga o'zgarishi mumkin. Misol uchun *Furkatova (shaxsning familiyasi) – the Furkatovas (turdosh ot – Furkatovalar oilasi ma'nosida)*. O'z navbatida, turdosh ot ham atoqli otga aylanishi mumkin. Bunda ko'pincha oddiy so'zlar mehmonxona, kinoteatr, jurnal, gazeta nomi, futbol komandalarining nomi bo'lib kelganda yuzaga chiqadi: *times (marta ma'nosida) – Times (gazeta nomi ma'nosida)*. O'zbek tilidagi atoqli otlar barcha narsa va shaxslarning nomlariga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilidan farqli ravishda atoqli otlar tub va yasama turlarga ham bo'linadi. Misol uchun, *Maxliyo, Firuz, Kumush* tub atoqli otlar bo'lsa, *Shohimardon, Oqtepa, Tepalik* kabilar yasama atoqli otlardir. Yana bir farqli jihati, o'zbek tilidagi atoqli otlarning asosiy qismi turdosh otlardan olinadi va yana ba'zilar ot so'z turkumidan tashqari boshqa so'z turkumlari doirasidan ham kelib chiqadi. Masalan:

Keldiyor – *fe'ldan*, *Asal* – *sifatdan*, *Oltmishboy* – *sondan* hosil bo'lgan atoqli otlardir. Bu kabi so'zlar o'zining asl ma'nosidan cheklangan holda ma'lum bir joy yoki shaxs nomi sifatida qaraladi: *Uchquduq* – o'sha joyda 3ta quduq yo'q, shunchaki joy nomidir [1, b. 71]. Bundan tashqari, atoqli otlar ko'plik qo'shimchasi bo'lmish – lar ni olmaydi, ammo qo'shilib kelsa ham jamlanish, guruh va hurmat ma'nolarini anglatib keladi. *Firuzlar keldi* (jamlanish, guruh ma'nosida, Firuz va uning oila a'zolari).

Ingliz tilidagi turdosh ot aniq (Concrete nouns) va mavhum (Abstract nouns)ga bo'linadi. Aniq otning o'zi yana 1) yakka otlar (Class nouns), 2) jamlovchi otlar (Collective nouns), 3) modda va sanalmaydigan narsalarni bildiruvchi otlar (Nouns of Materials or Mass nouns). Ulardan yakka otlar biror bir guruhning namunasi sifatida donalab sanalish xususiyati bilan ajralib turadi va ularga quyidagilar kiradi: *orange* – *apelsin* (mevalar guruhidan namuna sifatida keltirilyapdi), *rose* – *atirgul* (gullar guruhidan namuna), *table* – *stol* (uy-ashyolari guruhidan namuna). Jamlovchi otlar barcha narsa va shaxslarni to'dasini, guruhini va galasini ifodalaydi. *Family* – *oil*, *team* – *jamo*, *people* – *xalq* va boshqalar. Modda yoki sanalmaydigan otlarga esa suyuqliklar, juda mayda moddalardan tashkil topgan narsalar, ma'lum bir shaklga ega bo'lmagan otlar kiradi. Masalan: *water* – *suv*, *rice* – *guruch*, *silver* – *kumush*, *cereal* – *dukkalik boshq*, *tea* – *choy*.

Mavhum otlar esa belgi, xususiyat, holat va harakat nomlarini o'z ichiga olib, donalab sanalmaslik xususiyati bilan yaqqol ajralib turadi. Buni oddiy usulda – qo'limiz bilan ushlab bo'lmaydigan, ko'zimiz bilan ko'rib bo'lmaydigan umuman borliqda buyum holatida bo'lmagan, ammo his qilsa bo'ladigan ot deb ta'riflasak bo'ladi. Ularga *love* – *sevgi*, *confidence* – *ishonch*, *sadness* – *xafalik*, *hesitation* – *ikkilanish*, *peace* – *tinchlik*, *happiness* – *baxt*, *fame and fortune* – *mashhurlik* va boylik kabilar kiradi [2, b. 14].

O'zbek tilida ham turdosh otlar narsa yoki hodisalarning umumiy nomi sifatida ta'riflanib, atoqli, mavhum, jamlovchi va yakka, sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo'linadi. Misollari va ta'riflari yuqorida keltirilgan so'zlar bilan bir xil, ammo turlarga bo'lish jarayonida farqlanadi. Ingliz tilida yakka, jamlovchi va sanalmaydigan otlar aniq otlarning qismiga kiritilgan bo'lsa, mavhum otlar alohida bir tur sifatida ko'rildi.

Semantik – ma'no jihatdan tashqari otning funksional formalari ham bor. Bunga ko'ra otlar o'zbek tilida yasaliş jihatdan 3 turga: sintetik, analitik, juft va takroriy formalarga bo'linadi. Ularning har biri yan bir necha turlarga ajratiladi. Xususan, sintetik-funksional formasiga kichraytirish, erkalash, hurmat, qarashlilik, o'rin belgisi, chegara o'xshatish kabi shakllar kiradi [7, b. 242]. Ularda kichraytirish formasi o'zbek tilida –cha, -choq (hovuzcha, toychoq) affikslari bilan kelsa, ingliz tilida ko'pincha –ie va –ette (doggie, statuette) kabi qo'shimchalari bilan keladi. Erkalash formasiga o'zbek tilida –jon, –xon, –oy (Maxliyojon, Firuzjon) kabi affikslar bilan kelsa, ingliz tilida esa maxsus erkalash formalari mavjud emas. Hurmat ma'nosini o'zbek tilida –lar qo'shimchasi orqali ko'rsak (ayamlarga salom ayting), ingliz tilida qo'shimchalar yordamida emas, balki ma'lum bir so'z va so'z birikmalari yordamida (dear – aziz, hurmatli, mr, mrs – janob, xonim, your highness – janobi oliyalari) ifodalanadi. Qarashlilik esa –niki qo'shimchasi bilan o'zbek tilida, egalik ot olmoshi (mine – meniki, yours – seniki, sizniki, sizlarniki, his, hers, its – uniki, buniki, ours – bizlarniki, theirs – ularniki) va egalik kelishigi bo'lmish –s' formasi bilan ingliz tilida hosil qilinadi. O'rin belgisi o'zbek tilida –dagi affiksi bilan, ingliz tilida bu belgi maxsus predloglar orqali (in, on, at – in the cinema – kinoteatrda) hosil qilinsa, chegara formasi o'zbek tilida –gacha (-kacha, qacha) yordamida, ingliz tilida until, by so'zlari bilan ifodalanadi. O'xshatish formasi –dek (-day) qo'shimchasi bilan o'zbek tilida, like, as, as if so'zlari bilan ingliz tilida yoritiladi.

Otning analitik formasi o'zbek tilida ko'makchilar yordamida ifodalanadi va makon, vaqt, sabab, maqsad kabi ma'nolarini beradi: *qalam bilan, borgan sari, dadasi uchun, uy tomon*. Ingliz tilida bu hodisa predlog va shu tarjimalarni beruvchi so'zlar orqali amalga oshiriladi va xuddi shu ma'nolarni beradi: *with pencil, as something becomes, for father, toward the house*.

O'zbek tilida juft forma umumlashtirish, jamlik (qovun – tarvuz, qozon – tovoq) ma'nolarini yetkazishda, takroriy forma esa asosan ko'plik (ombor – ombor, qatra – qatra) ma'nosini ifodalaydi. Ingliz tilida esa maxsus juft va takroriy otlar mavjud emas. Ammo reduplikatsiya usulida hosil bo'lgan so'zlar qisman takroriy va juft so'zlarga o'xshaydi, biroq bunday so'zlar ingliz tilida chegaralangan bo'lib deyarli ot so'z turkumida kuzatilmaydi: girly – girly (sifat), speak – speak (fe'l), mur – mur (taqlid so'z), zig – zag (ot) [2, b. 139].

Har ikki tildagi funksional jihatlarini tahlil qilib bo'ldik. Endi ularning grammatik kategoriyalari haqida so'z yuritamiz. O'zbek tilida otlar uch xil grammatik kategoriyalardan iborat. Ular son, egalik va kelishik kategoriyalari bo'lib egalik kategoriyasidan tashqari doim ot bilan birga qo'llaniladi. Misol uchun, o'qituvchi so'zi hech qanday grammatik aloqaga kirishmagan holatda ham birlik, bosh kelishikdagi ot hisoblanadi. Hozirgi ingliz tilida esa ot so'z turkumida asosan ikkita grammatik kategoriya mavjud bo'lib, ular son va kelishik kategoriyasidir. Egalik kategoriyasi har xil so'z turkumlari, asosan, egalik kelishigi yordamida yoritiladi. Rod kategoriyasi ham ingliz tili nutqida he – o'g'il bolalar uchun she – qiz bolalar uchun it – jonsiz narsalar uchun kabi olmoshlar va ayrim suffikslardan (-ess, -ine, -trix, -ette ayollar uchun, -er, -or erkaklar uchun) tashqari keng tarqalmagani bois alohida kategoriya sifatida olinmagan. Ingliz tilida ham otning oddiy nol shakli birlik va bosh kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega va ular o'z ichidagi boshqa grammatik kategoriyalar bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har ikki tilda ham otlar deyarli bir xil turdagi funksiyalarni bajaryapti. Buni biz otning ayniqsa, funksional jihatdan taqqoslangan uslubida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun har ikki tilda ham kichraytirish (hovuzcha, toychoq – doggie, statuette. Ammo ingliz tilida hamma so'zlarga shu qo'shimchalarni qo'shib kichraytirish ma'nosini berolmaymiz. Bunda boshqa so'zlar – small, little, tiny kabilar yordamga keladi), hurmatlash (ayamlarga salom ayting – dear – aziz, hurmatli, mr, mrs – janob, xonim, your highness – janobi oliyalari), qarashlilik (mine – meniki, yours – seniki, sizniki, sizlarniki, his, hers, its – uniki, buniki, ours – bizlarniki, theirs – ularniki), o'rin belgisi (dagi – in, on, at – in the cinema – kinoteatrdagi), chegara (– gacha – by, until/till), o'xshatish (– dek (-day) – like, as, as if) kabi bir xil funksiyalarga ega. Ammo nutqda qo'llash usullari turlicha, shu sababdan yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ingliz tili affikslarga boy emas va ko'p belgilar, ma'nolar oddiy so'zlar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida qo'shimchalar ancha murakkab va ko'pchiligi allomorfl bo'lib (-gacha, -kacha, -qacha) barcha belgilarni ifodalashda faol qatnashyapdi [7, b. 243]. Bundan tashqari, bu kabi o'xshashliklar ularning umumiy grammatik kategoriyalarida ham uchraydi. Ya'ni har ikki tilda ham son va kelishik kategoriyalari mavjud va har ikki tilda ham rod kategoriyasi yo'q, ma'lum bir so'zlarda rod ma'nosi aks etsa ham oppozitsiyaga, ya'ni qarama-qarshilik jarayoniga kirishmaganligi uchun alohida grammatik kategoriya sifatida qabul qilinmagan. Lekin bu sohadagi katta va asosiy farq ingliz tilidagi egalik kategoriyasining yo'qligi, ingliz tilida o'zbek tilidagidek 6ta

kelishikning yo'qligi va bu grammatik ma'nolar boshqa usullar yordamida nutqda ifodalanishidir. Aynan shuning uchun ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan ko'plab o'zbek talabalarida tarjima va gap tuzish jarayonlarida muammolar yuzaga keladi. Misol uchun: *Maxliyoning yordami bilan bunga erishdim* gapidagi *Maxliyoning yordami* so'z birikmasining ingliz tilidagi ayni tarjimasi yo'q. Ya'ni ingliz tilida ham o'zbek tilidagidek *help-yordam* so'ziga egalik affiksi – I qo'shimchasini qo'sha olmaymiz. Ammo egalik ma'nosi o'zi bilan birga qo'shilib kelgan so'z, ya'ni *Maxliyo's* – *Maxliyoning* so'zi bilan ifodalanib ketadi. Maqoladagi yuqorida keltirilgan misollar yordamida nafaqat ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari, balki chet elik til o'rganuvchilar ham foydalanib tarjima va so'zlar ma'nosini to'g'ri muqobili bilan o'rganib o'zbek tilini o'rganishda (aynan otlar mavzusida) katta yordami tegishi mumkin. Shu tarzda quyidagi maqolada ikki tildagi morfologik kategoriyaga kiruvchi ot so'z turkumiga kiruvchi grammatik farq va o'xshashliklarni funksional – semantik jihatdan ko'rib chiqildi va bu ish bilan tilni o'rganish bilan birga tarjima jarayonidagi muammolar qisman bartaraf etilishi va shu sababdan bu ish ilmiy yangilik sifatida qaralishi umid qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Turniyozev, A. Rahimov, O'zbek tili. O'quv – uslubiy qo'llanma. – Samarqand. 2006. – 147 b.
2. J.Bo'ronov. Ingliz va O'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1973. – 279 b.
3. J.Buranov, U. Hashimov, H.Ismatullayev, Ingliz tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1974. – 351 b.
4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi O'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., "Fan va texnologiya", 2009. – 416 b.
5. Paul Newman Tone and affixation in Hausa, December 1986. Studies in African Linguistics Volume 17, number 3, 1-4
6. Saza F. Abdulla, Mohsin H.S. Qadir, 1987. A Comparative Approach to Class Changing Derivational Affixes in English and Kurdish. Koya University, Iraq, Vol. 4, no 1, 12-13
7. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi O'zbek adabiy tili I qism. – T., "O'qituvchi", 1980. – 443 b.